

## O`zbekcha - Inglizcha tibbiy so`zlashgich

Tibbiy so`zlashgich to`rt qismdan iborat:

- vrachning bemorni birinchi ko`ruvidan o`tkazishdagi suhbat;
- bemor bilan mutaxassis vrachlarning suhbat;
- bemorni tekshirish va davolash paytidagi suhbat;
- davolash muassasasining xizmat ko`rsatuvchi tibbiy xodimlari bilan suhbat.

Ilovalarda O`zbekiston Respublikasida ko`proq tarqalgan kasalliklar va respublikaning iqlimi hamda ijtimoiy-turmush sharoitlarini hisobga olgan holda ularning belgilari ko`rsatilgan tibbiyot asbob-uskunalarining nomlari berilgan.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.I. Gadoyeva  
Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori, dotsent G.I.Toirova



Globe  
EDIT

Dictionary

M.I. Gadoyeva, G.I. Toirova

Globe  
EDIT



M.I. Gadoyeva · G.I. Toirova

## O`zbekcha - Inglizcha tibbiy so`zlashgich

Uzbek - English medical conversation book

**M.I. Gadoyeva  
G.I. Toirova**

**O`zbekcha – Inglizcha tibbiy so`zlashgich**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**M.I. Gadoyeva  
G.I. Toirova**

**O`zbekcha – Inglizcha tibbiy  
so`zlashgich**

**Uzbek – English medical conversation book**

FOR AUTHOR USE ONLY

**GlobeEdit**

## **Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L  
Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-620-0-62697-4**

Copyright © M.I. Gadoyeva, G.I. Toirova

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the  
OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**M.I. GADOYEVA, G.I. TOIROVA**

**O`ZBEKCHA – INGLIZCHA TIBBIY SO`ZLASHGICH**  
**UZBEK – ENGLISH MEDICAL CONVERSATION**  
**BOOK**

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining**  
**2021-yil 31-may 237-sonli buyrug`iga asosan nashrga tavsiya etilgan**

**2021- yil**

## ANNOTATSIYA

Tibbiy soʻzlashgich toʻrt qismdan iborat:

- vrachning bemorni birinchi koʻruvidan oʻtkazishdagi suhbat;
  - bemor bilan mutaxassis vrachlarning suhbat;
  - bemorni tekshirish va davolash paytidagi suhbat;
  - davolash muassasasining xizmat koʻrsatuvchi tibbiy xodimlari bilan suhbat.
- Ilovalarda Oʻzbekiston Respublikasida koʻproq tarqalgan kasalliklar va respublikaning iqlimi hamda ijtimoiy-turmush sharoitlarini hisobga olgan holda ularning belgilari koʻrsatilgan tibbiyot asbob-uskunalarining nomlari berilgan.

### **OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI SOGʻLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

The medical conversation book consists of four parts:

- doctor's conversation with patients for the first examination;
- doctor's – specialists' conversation with patients;
- conversation during examining and treating;
- conversation with service personals of the treating establishments.

In the supplements the list of the most wide-spread diseases and symptoms with consideration of climatic and social conditions of the life in the republic of Uzbekistan, and also the list of the medical equipment and instruments are given.

### **THE MINISTRY OF HEALTH PROTECTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Mazkur lugʻatda tahsil oluvchilarning oʻzlashtirgan nafaqat bilimlarini, tibbiyotga oid yangi atamalar bilan tanishish, ularning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish va baholash jarayonini haqqoniy va odilona amalga oshirish imkonini beradi.

**Mualliflar:**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.I. Gadoyeva

filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori, dotsent G.I.Toirova

**ta'lim yo`nalish:** 5120200-Tarjima nazariyasi va amaliyoti

**Taqrizchilar:**

**N.F.Qosimova** – filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.N.Yuldasheva**- pedagogika fanlari nomzodi, professor

<b>TANISHUV</b>	<b>MEETING A PATIENT</b>
Assalomu alaykum!	Good morning! (Good afternoon)!
Mening ismim ...	My name is ...
Men ...	I am ...
shifokorman, vrachman	a doctor
hamshiraman	a nurse
.....tilida gapirasizmi?	Do you speak.....?
Rus	Russian
O`zbek	Uzbek
Ingliz	English
Familiyangiz?	What is your surname?
Ismingiz (ismi sharifingiz)?	What is your name?
Savollarimga «ha» yoki «yo`q», deb javob bering.	Answer my questions “yes” or “no”.
Ustki kiymimni qayerga yechib (osib) qo`yishim mumkin?	Where can I take off (hang) my coat?
Menga ... bering	Give me ... please
xalat	a hospital gown
qalpoqcha	a cap
Kasallarni qayerda qabul qilaman?	Where shall I consult the patients?
Xonamni ko`rsatsangiz.	Where is my consulting room?
O`tiring.	Sit down, please.
Rahmat!	Thank you.
Marhamat!	You are welcome!
Ko`rishguncha xayr!	Good bye!
<b>VRACHNING BEMOR BILAN TANISHUVI</b>	<b>DOCTOR'S MEETING WITH PATIENTS</b>
Qabul uchun taloningiz bormi?	Have you got a coupon for the consultation/reception?
Taloningizni beringchi.	Give me your coupon.
Nima istaysiz?	What do you want?
Sizga qanday ma`lumotnoma kerak?	What kind of information do you need?
Yozing ...	Write ...
ismingiz (ismi sharifingiz)ni	your name
familiyangizni	your surname
manzilgohingizni	your address
<b>TURMUSH TARIXI TO`G`RISIDA SO`ZLASHUV</b>	<b>CONVERSATION ABOUT THE HISTORY OF LIFE</b>
Yoshingiz nechada?	How old are you?
..... tug`ilganmisiz?	Were you born in ...?
Shaharda	town
Qishloqda	village
.....oilasida tug`ilganmisiz?	Were you born in the family of ...?
Ishchi	workers

Dehqon	farmers
Xizmatchi	office-workers
Ishbilarmon	businessmen
Harbiy	military
Ota-onangiz.... ?	Is your father (mother) ...?
Hayotmi	alive
sog`-salomatmi	healthy
Sizlar oilada necha nafar farzand?	How many children did your parents have?
Bolalikdan sog`lom o`sganmisiz?	Were you a healthy child?
Tez-tez og`rirmidingiz?	Were you often ill?
Siz bolalikda .....bo`lganmisiz?	Did you have ... in your childhood?
qizamiq	measles
skarlatina	scarlet fever
ko`kyo`tal	whooping-cough
gripp	influenza
angina	tonsillitis, quinsy
ichburuq	dysentery
bezgak	malaria
Operatsiyadan keyin necha yil o`tdi?	How many years have passed since the operation?
Sizda ... holatlari bo`lganmi?	Have you had any...?
suyak chiqishi	dislocation
kuyish	burns
suyak sinishi	fractures
miya chayqalishi	concussion of the brain
lat eyish	injuries
Hayz .....necha yoshda edingiz?	How old were you when your menses ...?
ko`rganingizda	began
tugaganida	finished
Hozir .....yashaysizmi?	Do you live in the .....now?
shaharda	city
qishloqda	village
Hech qayerga chiqmadingizmi?	Did you leave for anywhere?
Ilgari ..... yashaganmisiz?	Did you live in other ... before?
boshqa mamlakatda	countries
boshqa shaharda	cities
boshqa qishloqda	villages
Siz .....?	Do you .....?
O`qiysizmi	study
ishlaysizmi	work
Siz ... ishlaysizmi?	Do you work ...?
hunarmandchilik tarmog`ida	at the cottage inSiestry

do`konda	at the shop
qishloq xo`jaligida	at the agriculture
muassasada	at the institutions
konda	in the mines
zavodda	at a plant
neft sanoatida	at the oil inSiestry
transportda	at the transport inSiestry
fabrikada	at a factory
Necha yoshdan boshlab ishladingiz?	At what age did you begin to work?
Mehnatingiz ... ?	Is your work ...?
aqliymi	mental
jismoniyimi	physical
Mehnat sharoitingiz ... ?	Are the working conditions...?
yaxshimi	good
qoniqarlimi	satisfactory
yomonmi	bad
Siz ... ishlaysizmi?	Do you work ...?
issiq xonada	in warm premises
sovuq xonada	in cold premises
ko`chada	in the open air
Ishingiz ... bilan bog`liqmi?	Is your job related to ...?
gaz	Gasses-
uzoq o`tiradigan ish	prolonged sitting
ko`p yuradigan ish	prolonged walking
teri oshlashga doir ish	processing
kislotalar bug`i	acid steams (vapors)
neft bug`i	oil steams (vapors)
simob bug`i	mercury steams (vapors)
ishkorlar bug`i	alkaline steams (vapors)
joydan joyga ko`chib yurish	moving to other ...
qishloqqa ko`chib yurish	villages
shaharlarga ko`chib yurish	cities
mamlakatlarga ko`chib yurish	countries
og`ir yuk ko`tarish	weight-lifting
chang qo`rg`oshin gardi	leaden Siest
zax yer	dampness
issiqlik ta`siri	heat influence
Uylanganmisiz?	Are you married?
Turmushga chiqqanmisiz?	Are you married?
Necha yoshda turmushga chiqdingiz?	At what age did you get married?
Necha yoshda uylandingiz?	At what age did you get married?
Bolalarigiz bormi?	Do you have children?
Bolangiz nechta?	How many children do you have?
Bolalarigiz sog`lommi?	Are your children healthy?

Birinchi farzandingiz tug`ilganida necha yoshda edingiz?	How old were you when your first child was born?
Necha marta... ?	How many times have you ...?
homilador bo`lgansiz	been pregnant
tuqqansiz	had confinements
bola oldirgansiz	had abortions
homilangiz tushgan	had miscarriages
Eng kichik farzandingiz necha yoshda?	How old is your youngest child?
Oilangizda hamma sog`lommi?	Are all members of your family alive (healthy)?
Oilangizda kim kasal?	Who is ill in your family?
Oilangizda kim o`lgan?	Who is dead in your family?
Qanday kasallikdan .....o`lgan?	From what disease did your ... die?
eringiz	husband
xotiningiz	wife
o`g`lingiz	son
qizingiz	daughter
..... yashaysizmi?	Do you live ...?
Yolgiz (bir o`zingiz)	alone
Xotingiz bilan	with your wife
Eringiz bilan	with your husband
Bolalaringiz bilan	with your children
Turmush sharoitingiz ... ?	Are your living conditions ...?
yaxshimi	good
qanoatlanarlimi	satisfactory
yomonmi	bad
.....ovqatlanasizmi?	Do you eat (have) ...?
Uyda	at home
Qahvaxonada	at the cafe
Restoranda	at the restaurant
.....chekasizmi?	Do you smoke ...?
Papiros	cigarettes
Trubka	a pipe
Kuniga necha dona chekasiz?	How many cigarettes a day do you have?
Necha yildan buyon chekasiz?	For how many years have you been smoking?
Spirтли ichimliklar ichasizmi?	Do you drink alcohol?
Qaysi turlaridan iste`mol qilasiz?	What kind of drinks do you have?
o`tkir sharob ichasizmi	wine (fortified)
spirtsiz vino	wine (dry)
aroqmi	vodka
pivomi	beer

Birdaniga ko'p ichasizmi (kam-kammi)?	Do you drink much (little) at once?
Dori ichishga qalaysiz?	Do you bear drugs well?
Dori qabulidan (ukoldan) keyin ... ?	Have you had ... after taking a medicine (injections)
toshma toshmaydimi	a rash
qusmaysizmi	a vomiting
hushdan ketmaysizmi	a shock
Narkotik moddalar iste'mol qilaysizmi?	Do you use narcotics?
<b>HOZIR CHALINGAN KASALLIK TARIXIGA OID SO'ZLASHUV</b>	<b>CONVERSATION ABOUT A PRESENT CASE HISTORY</b>
Hozir sizni .....bezovta qilayaptimi?	Is the ... troubling you now?
bosh og'rishi	headache
bosh aylanishi	dizziness
tashnalik (chanqov)	thirst
jig'ildon (me'da) qaynashi	heartburns
yo'tal	coughing
qo'l-oyoqni kimirlata olmaslik	inability of moving leg, arm
nafas qisish, harsillash	short wind/breath
titrash, qaltirash	shivering chill
ko'ngil aynishi	nausea
haroratning balandligi	fever
og'riq	ache
Ko'rsatingchi, qayeringiz og'riyapti?	Show me, where do you have pain?
Kasallik qachondan boshlandi?	When did you fall ill?
Qancha vaqt ... o'tdi?	How many ... have passed?
soat	hours
kun	days
hafta	weeks
Haroringizni .....o'lchadingizmi?	Did you take your temperature ...?
eratalab	in the morning
kecha kuchqurun	yesterday evening
bu erga kelishdan oldin	before coming to me
Haroringiz necha edi?	What was your temperature?
Haroringiz necha kun yuqori bo'ldi?	How many days have you had a high temperature?
Kasallik nimadan boshlandi?	What did the disease begin with?
... qiyinlik tuyuldimi?	Was it difficult ...?
Nafas olishda	to breathe
Yutishda	to swallow
.... ro'y berdimi?	Did you have ...?
Yuragingiz sanchishi	a heartache
Boshingiz og'rishi	a headache
Umumiy holsizlik	general indisposition

Titrok, qaltirash	shivering
Hushingizni yo`qotmadingizmi?	Have you been in faint?
Qusdingizmi?	Did you vomit?
Qusganda ... ..tushdimi?	Did you have vomiting with ...?
ovqat	food
safro	bile (gall)
qon	blood
kofe quyqumiga o`xshash narsalar	grounds
najas aralash narsalar	feces
Necha marta qusdingiz?	How many times did you vomit?
Qorinda og`riq sezdingizmi?	Have you had stomach ache?
Ichingiz .....keldimi?	Had stool .....today?
odatiy	ordinary (usual)
suyuq	liquid (watery)
shilimshiqli	with slime (mucus)
qon aralash	with blood
Qorningiz dam bo`ldimi?	Did you have flatulence?
El chiqayaptimi?	Do the gases pass away?
Ichingiz .....keldimi?	Was stool.....?
bugun	today
kecha	yesterday
Ichingiz bundan necha kun oldin kelgan edi?	How many days ago did you have stool?
Siyishda qiynalasizmi?	Is it difficult to urinate?
Tez-tez siyasizmi?	Do you urinate often?
Siyganda achishib og`riydimi?	Do you feel pain when you urinate?
Siydigingiz ... ?	Is your urine...?
rangsizmi	bright
to`q ranglimi (qoramtirmi)	dark
qon aralashmi	bloody
Kasal bo`lish oldidan .....ovqat egan edingizmi?	Have you eaten ... food before falling ill?
eskirgan	stale/not fresh
konservalangan	tinned
achchiq	spicy
qovurilgan	fried
yog`lik	greasy
Spirтли ichimlik ichganmidingiz?	Did you drink alcohols?
Kasallik boshlanganidan buyon og`riq ... ?	Did the pain ... from the beginning of the disease?
ko`paydimi	increase
kamaydimi	decrease
Og`riq ..... kuchayadimi?	Does the pain increase ...?
ertablari	in the morning

kunduzi	in the afternoon
kechqurunlari	in the evening
kechasi	at night
harakat qilganda	in moving
nafas olganda	in breathing
ovqatlanishgacha	before meals
ovqatlanib bo`lgach	after meals
ovqatlanib bo`lgan zahotiyoc	at once after meals
yarim soatlardan keyin	in 30 minutes
2 soatlardan keyin	in 2 hours
Og`riq ..... pasayadimi?	Does the pain calm down ...?
tinch holatda	when having a rest
yonboshlab yotganda	When you lie on the side
qorin bilan yotganda	on the stomach
tepaga qarab yotganda	on the back
oyoqlarni bukkanda	with a bent knees
yurganda	in walking
Og`riqni qoldirishga o`zingiz urinib ko`rdingizmi?	Did you try to decrease the pain yourself?
Og`riqni qoldirishga .....yordam beradimi?	Does .....help you to decrease the pain?
isitgich	a hot water bottle
muz solingan rezina xalta	an ice bag
muzdek sochiq	a cold towel
qusish	vomiting
dori	drug
Sizga qanday dorilar yordam berdi?	What kind of drugs helped you?
Retseptingizni ko`rsatsangiz?	Please, show me your prescription.
Ilgari shunga o`xshash og`riqlar bo`lganmi?	Have you had such pains before?
Necha marta?	How many times?
Xurujlar orasi ....?	Is the time between the attacks.....?
1 soatmi	an hour
1 kunmi	a day
1 haftami	a week
1 oymi	a month
1 yilmi	a year
Xuruj uzoqqa cho`ziladimi?	Do your attacks last long?
Oxirgi marta xuruj qilganiga ancha bo`ldimi?	Was the last attack long time ago?
O`shandan buyon ..... vaqt o`tdimi?	How many....have passed since that time?
1 soat	hours
1 kun	days

1 oy	months
1 yil	years
Ilgari bu kasallikdan davolanmisiz?	Have you got (take the course of) treatment for this disease before?
.....davolanmisiz?	Did you take a course of treatment at .....?
Uyda	home
Shifoxonada	the hospital
Retseptlaringiz saqlanganmi?	Have you kept prescriptions?
Ko`rsatingchi.	Show me please.
Bu dorilar sizga yordam berganmidi?	Did these medicines help you?
Sizni tibbiy tekshiruvdan o`tkazishdimi?	Have you had medical examination?
Tekshiruv natijalarini ko`rsatingchi.	Show me please, the results of analyses.
<b>XOLIS TEKSHIRUV CHOG`IDAGI SO`ZLASHUV</b>	<b>CONVERSATION IN OBJECTIVE EXAMINATION</b>
Men sizni ko`rikdan o`tkazishim kerak.	I must examine you.
Og`zingizni oching.	Open your mouth.
Tilingizni ko`rsating.	Show me your tongue.
Tilingizni chiqaring, og`zingizni kattaroq ochib, «a-a-a» deng.	Put your tongue out, open your mouth widely and say “ah-ah-ah”.
YUtinsangiz og`riydimi?	Does it hurt when you swallow?
... qarangchi.	Look...
Pastga	down
Tepaga	overhead
O`ngga	to the right
Chapga	to the left
Boshingizni biroz eging.	Hang your head a little down.
Belingizgacha echining.	Strip to the waist.
O`tiring.	Sit down, please.
Qo`lingizni bering, arteriya qon bosimingizni o`lchayman.	Give me your hand, I`ll measure your blood pressure.
Mushtingizni mana bu tirsak ostiga qo`ying.	Put your fist under this elbow.
Turing.	Stand up, please.
Necha ...	How many ...
kun	days
hafta	weeks
oy	months
yil	years
oldin bu ... paydo bo`ldi?	ago did this ... appear?
shish	swelling (tumor)

yara	ulcer
dog`	spot
so`gal	wart
Bu chandiq ... keyin qolganmi?	Is this scar after....?
jarohatdan	injury
operatsiyadan	operation
yaradan	ulcer
yiringli yallig`lanishdan	purulent inflammation
Orqangizni o`giring.	Turn your back to me.
Men elkangiz ostiga urib ko`raman.	I'll tap on your back.
Og`riyaptimi?	Does it hurt?
.....tarafi ko`proq og`riyaptimi?	Does it hurt you more on the .....?
O`ng	right
Chap	left
... nafas oling	Breathe ... please
Odatdagidek	normally
Chuqur	deeply
Chuqurroq	deeper
Nafas olmay turing.	Don't breathe.
CHuqur nafas oling.	Breathe in. (Inhale. .Take a deep breath).
Nafasni to`la chiqaring.	Breathe out. (Exhale/Take a full breath.
Nafasingizni tutib turing.	Hold your breath.
Yo`talingchi.	Cough a little.
Yo`talmang.	Don't cough.
Bu yoningizga o`giriling, endi boshqa yoningizga o`giriling.	Turn aside, now the other side.
«33», «44», «traktor» deb aytib ko`ring.	Say "33, 44, tractor"
Yana bir marta.	Once more (Again).
Ikkala qo`lingizni tepaga ko`taring.	Raise both hands up.
Qo`llaringizni pastga tushiring.	Put your hands down.
Shu harakatni men bilan birga takrorlang.	Repeat this movement after me.
Ko`kragingizni ushlab ko`raman.	I palpate your breast.
Necha ...oldin	How many ... ago
kun	days
hafta	weeks
oy	months
yil	years
Siz ..... sezdingiz?	did you feel.... before?
ko`krak uchidan nam kelganini	allocation of the nipple
o`sma paydo bo`lganini	tumor
Qo`lingizni boshingizga qo`ying.	Put your hands on your head.

Qo'lingizni tushiring.	Put your hands down.
Men tomonga o'giriling.	Turn your face to me.
... ko'kragingizni ko'taring.	Hold up your ... chest.
Chap	left
O'ng	right
3-5 marta o'tirib turing.	Sit and stand 3-5 times.
Ko'ylagingizni kiyishingiz mumkin.	You can put your shirt on.
Beldan pastki kiyimlaringizni eching.	Take off all your clothes below the waist.
Kushetkaga, chorpayaga yotingchi.	Lie on the couch.
... ..o'giriling	Turn on the ...
Orqaga	back
Qoringa	stomach
O'ng yonboshga	right side
Chap yonboshga	left side
Qo'llaringizni yonboshingizga qo'ying.	Put your hands along the body.
Oyoqlaringizni tizzangizdan buking.	Bend legs from the knee.
Qorningizni kattalashganini qachon sezdingiz?	When did you feel increasing stomach?
Qorningizni siypalab ko'raman.	I palpate your stomach.
Agar og'risa ayting.	Tell me when it hurts you.
Qorin muskullarini bo'sh qo'ying.	Relax your stomach muscles.
Qorin bilan chuqur nafas oling.	Breathe deeply with the help of your stomach.
Nafas olganda qorningiz bilan qo'limni ko'taring.	By breathing lift my hand with your stomach.
.....og'riq kuchayaptimi?	Does the pain increase when I .....with my hand?
Qo'lim bilan bosganimda	press
Qo'limni olganimda	release
Og'riq biror joyingizga tarqayaptimi?	Does the pain give to anywhere?
Qayeringizga og'riq berganini qo'lingiz bilan ko'rsating.	Show with your hand, where the pain spread.
Boshingizni ko'taring.	Raise your head.
.....oyog'ingizni bukmasdan ko'taring.	Raise your .....foot without bending.
O'ng	right
Chap	left
Ichingiz har kuni keladimi?	Do you have a daily stool?
.....bo'ladimi?	Do you have.....?
Qabziyat	constipation
Ich ketishi	diarrhea

Cho`kkalab turing va tirsaklaringizga tayaning.	Kneel and lean on your elbows.
Egiling.	Bend the back.
Kuchaning.	Tighter.
Ichagingizni ko`rib qo`yaman.	I`ll examine your intestine (gut).
Bunda og`rimaydimi?	Doesn`t it hurt?
Dumbalaringiz bilan barmoqlarimni qising.	Squeeze my fingers with your buttocks.
Kiyinishingiz mumkin.	You may put your clothes on.
O`rningizdan turing.	Stand up.
Qo`llaringizni ko`taring.	Raise your hands.
Tirsakdan buking.	Bend them from the elbows.
Qo`llaringizni musht qilib turing.	Clench your fist.
Barmoqlarimni qising.	Squeeze my fingers.
Qattiqroq, yana ham qattiqroq.	Stronger, more stronger.
Egiling.	Lean.
Qo`llaringizni polga tekkizing.	Bend and touch the floor you`re your fingers.
Qaddingizni rostlang.	Straighten.
Oyoqlaringni tizzangizdan buking.	Bend your knees.
Oyoqlaringizni yana bir marta uzating.	Straighten your legs again.
Oyoq kaftini qimirlatib ko`ring.	Move your foot (leg).
Qo`llaringizni oldinga cho`zing.	Spread your hands forward.
Barmoqlaringizni oching.	Spread out your fingers.
Ko`zingizni yuming.	Close your eyes.
Ko`zingizni oching.	Open your eyes.
Qo`llaringizni ko`taring.	Raise your hands.
Qo`llaringizni buking.	Bend your hands.
<b>MUTAXASSIS VRACHLARNING BEMORLAR BILAN SO`ZLASHUVI</b>	<b>CONVERSATION OF SPECIALISTS WITH PATIENTS</b>
<b>TERAPEVT HUZURIDAGI SO`ZLASHUV</b>	<b>AT THE THERAPIST</b>
<b>NAFAS YO`LI A`ZOLARINING KASALLIKLARI</b>	<b>THE RESPIRATORY ORGANS DISEASES</b>
Sizni ..... bezovta kilayaptimi?	Is ... troubling you?
nafas olganda biqin og`rishi	the pain on your side while breathing
harsillash	shortness of breath
Siz ... yo`talasizmi?	Do you have .....cough?
doim	constant
xuruj tarzida	paroxysmal
quruq	dry
balg`amli	with phlegm
qusgudek bo`lib	vomiting

Yo`tal ... paydo bo`ladimi?	Does the cough appear ...?
kechasi	at night
ertalab	in the morning
kun davomida	Siering the day time
havo sovuganda	in the cool
Balg`am ... ?	Does the sputum ...?
yiringlimi	purulent
quyuqmi	thick
suyuqmi	liquid
ko`kishmi	greenish
qo`lansa hidlimi	foul-smelling
ko`pmi	abundant
tiniqmi	clear
sarg`ishmi, zang rangdami	rusty
kam-kammi	sparse
shilimshiqmi	mucous
taram-taram qon aralashmi	bloody
yo`talganda qiyinlik bilan ko`chadimi	expectorate hardly
og`iz to`lib chiqadimi	separate mouth full
Balg`am ... ko`p chiqadimi?	Do you have more sputum.....?
yotganingizda	when you lie
o`ng tomonga yonboshlaganingizda	when you lie on the right side
chap tomonga yonboshlaganingizda	when you lie on the left side
osmonga qarab yotganingizda	when you lie on the back
o`rningizdan turayotganingizda	when you get up
Ko`kragingizda og`riq bormi?	Have you got a pain in the chest?
Terlaysizmi?	Do you have sweat?
Siz ... terlaysizmi?	Does your sweat ...?
kunda	daily
tunda	nightly
suv bo`lib	perspiration
ahyon-ahyonda	rarely
tez-tez	frequently
Zotiljam bo`lganmisiz?	Did you suffer from pneumonia?
Qachon?	When?
Qon tuflaganmisiz?	Did you have hemoptysis?
Sizda ... ro`y bergan.	You have ...
shamollash kasalligi	a cold
bronxit	Bronchitis
bronxit kengayishi kasalligi	bronchiectasis
zotiljam	pneumonia
o`pka infarkti	pulmonary infarction
o`pkaning suvli yallig`lanishi	exudative pleurisy
Sizni shifoxonaga yotqizish zarur.	You must be hospitalized.

Sizning o`pkangizdagi suyuqlikni chiqarib olish kerak.	You need your lungs to be paracentesised and liquid released.
<b>O`PKA SILI</b>	<b>PULMONARY TUBERCULOSIS</b>
Sizni ... bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
terlash	sweating
harorat ko`tarilishi	Increasing of the temperature
kechqurun ishtahaning yo`qolishi	losing of appetite in the evenings
ozish	losing of weight
ko`krakdagi og`riq	the pain in the chest
lanjlik	lethargy
doimiy balg`amli yo`tal	coughing with sputum
Tez-tez shamollab turasizmi?	Do you often catch a cold?
Haroratingiz baland bo`lganmidi?	Did you have a high temperature?
Necha ... avval birinchi (oxirgi) marta qon tuflagansiz?	How many ... ago was the first (last) blood spitting?
hafta	weeks
oy	months
yil	years
Yozib bering.	Write.
Siz ... qildirishingiz kerak.	You need ...
o`pkangizni rentgen	to have your lungs X-rayed
silni aniklash uchun Pirke, mantu	to make a test for tuberculosis
Muolaja xonasiga o`ting.	Go to the treatment room.
Sizda o`pka sili yo`q.	You have not pulmonary tuberculosis
Siz o`pka sili kasalligiga chalinibsiz.	You have pulmonary tuberculosis
Bu kasallik xavfli va yuqumlidir.	This disease is dangerous and infectious.
Uni davolash mumkin.	It is curable.
Sizning ... alohida bo`lishi kerak.	You must have your indiviSieal ...
idish-tovog`ingiz	plate and dishes
sochig`ingiz	tower
o`rin-ko`rpangiz	bed-clothes
xonangiz	room
Sizga chekish mumkin emas.	You are not allowed to smoke.
Siz ko`p vaqtingizni ochiq havoda o`tkazishingiz kerak.	You must spend much time in the open air.
Bolalar bilan ishlashingiz mumkin emas.	You shouldn't work with children.
Siz operatsiya qildirishingiz kerak.	You need to do operation.
Jarrohga murojaat qiling.	You should consult a surgeon.
<b>YURAK KASALLIGI. MIOKARD INFARKTI. SURUNKALI KAMKONLIK KASALLIGI STENOKARDIYA.</b>	<b>HEART DISEASE. MYOCARDIAL INFARCTION. CHRONIC ISHEMIC HEART DISEASE. STENOCARDIA</b>

Sizda ... bo`lganmi?	Did you have ...?
jismoniy zo`riqish holati	physical strain
qattiq charchash	overwork
ruhiy jarohatlanish	mental trauma
Sizni ... og`riq bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
ko`krak ortidagi	breast pain
ko`krakning chap tomonidagi	pain in the left part of the chest
ko`krak ostidagi	pain in the sub scapular area
Og`riq`ingiz.....?	Is the pain ...?
kuchsizmi	weak
simillaganmi	nagging
achishib turadiganmi	cutting
gijimlab turuvchimi	compressive
toqat qilib bo`lmaydiganmi	intolerable
davomlimi	long
Og`riq necha minut (soat) davom etadi?	How many minutes (hours) does the pain last?
Og`riq .... berayaptimi?	Is the pain in the ...?
chap qo`lga	left hand
chap kurakka	left shoulder-blade
chap elkaga	left shoulder
orqaga	back
bo`yinga	neck
Chap qo`lingiz uvishadimi?	Does your left arm grow numb?
Og`riq paytida qo`rquv paydo bo`ladimi?	Is the pain accompanied by a sense of fear?
Sizni .....bezovta qiladimi?	Does ... trouble you?
ko`ngil aynishi	vomiting
hiqichoq tutishi	hiccup
Qusdingizmi?	Did you have vomiting?
Necha marta?	How many times?
Kasallik boshlangandan buyon og`riq ..?	Has the pain ..... since the beginning of the illness?
kuchaydimi	increased
kamaydimi	decreased
... og`riq xuruj qiladimi?	Do the attacks of the pain appear ...?
Hayajonlanganda	when excited
Harakat qilganda	while moving
Jismoniy zo`riqqanda	on exertion
Yurganda	when walking
To`yib ovqatlanganda	after a heavy meal
Sovqotganda	when it's cold
Tinch holatda	at rest
Sizda ... og`riq pasayadimi?	Does the pain calm down...?

tinch holatda	at rest
nitroglitserin ichgandan keyin	after taking nitroglycerine
Xuruj necha minut (soat) davom etadi?	How many minutes (hours) does the attack last?
..... nafas qisadimi?	Do you have shortness of breath ...?
Yurganda	when walking
Ishlaganda	Siering working
Yo kechasi (Tunda)	at night
Nafas qisish (harsillash) doimiymi?	Is the shortness of breath constant?
Tunlari nafasangiz qisadimi?	Do you have attacks of suffocation at night?
Xuruj to`satdan boshlanadimi asta-sekinmi (doimiymi)?	Do the attacks begin suddenly, slowly (constantly)?
... bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
Yurak urishi	heart beating
Yurakni notekis urishi	heart beating intermission
Bosh og`rishi	headache
Bosh aylanishi	dizziness
O`ng qovurg`angizning tagi og`rishi	pain in the right sub costal
Oyoq shishi	swelling of the feet
O`tirganda engil tortasizmi?	Do you feel better, when you sit?
Yarim o`tirgan holda uxlaysizmi?	Do you sleep half- sitting?
Sizda ilgari ... bo`lganmisiz?	Did you have ... before?
yurak infarkti	cardiac infarction
stenokradiya	Stenocardia
Sizda o`tkir yurak xastaligi bor, balkim, miokard infarktidir.	You have an acute heart disease, maybe it is myocardial infarction.
Hozir elektrokardiogramma qilishadi.	You will be made an electrocardiogram (ECG).
Elektrokardiogrammaning ko`rsatishicha, kasalingiz.....	According to ECG you have....
miokard infarkti	a myocardial infarction
infarkt emas	not a cardiac infarction
Sizni shifoxonaga yotqizish kerak.	You need to be hospitalized
Hozir sizga ukol qilishadi.	You will be given injection.
U og`riqni qoldiradi.	It removes pain.
Sizning kasalingiz qon tomirlaridagi o`zgarishi bilan bog`liq.	Your heart disease is associated with changes of blood vessels.
Sizga og`ir jismoniy mehnat qilish mumkin emas.	You are not allowed to be engaged in heavy physical work.
Hayajonlanmaslikka harakat qiling.	Try to avoid excitement.
<b>REVMATIZM – BOD</b>	<b>RHEUMATISM</b>
Bo`g`inlardagi og`riq bezovta qilayaptimi?	Are the pains of joints troubling you?

Og`riq doimiymi?	Does the pain constant?
Og`riq tunda (kunduzi) kuchayadimi?	Is the pain severe at night (stronger Siering the day)?
Ko`rsating, qaysi bo`g`imlaringizda og`riq bor?	Show me, joints where you have pain?
Bo`g`imlaringiz ilgari ham og`rirmidi?	Did joints ache before?
Bo`g`imlaringiz ilgari qizarganmidi?	Did joints flush before?
Bo`g`imlaringiz ilgari shishganmidi?	Did joints swell before?
Haroringiz .....?	Is your temperature.....?
o`rtachami	normal
yuqorimi	high
Tomog`ingiz og`rirmidi?	Did you suffer from quinsy?
Bodomsimon bezni oldirganmisiz?	Are your tonsils removed?
Qachon?	When?
Yozib bering.	Write.
Teringizga narsa toshganmidi?	Did you have the rash on your skin?
Ilgari revmatizm (bod) bilan og`riganmisiz?	Did you suffer from rheumatism before?
Necha marta bod xuruj qildi?	How many times did you have rheumatic attacks?
Oxirgi bod xuruji qachon bo`ldi?	When was the last rheumatic attack?
Kasallik ... oqibatida kelib chiqdimi?	Did the disease proceed with ...?
qattiq charchash	overstrain
sovuq qotish	cooling
(angina) tomoq og`rig`i	quinsy (sore throat)
Qorningiz kattalashganiga necha .....bo`ldi?	How many .....ago did your stomach increase?
hafta	weeks
oy	months
Qorin bo`shlig`ingizdan suyuqlik chiqarib yuborishganmi?	Was the liquid released from your abdominal cavity?
Necha litr?	How much liters?
Kasalingiz revmatizm (bod)	You have rheumatism.
Sizni shifoxonaga yotqizish kerak.	You need to be hospitalized.
Siz qimirlamay yotishingiz kerak.	It is necessary for you to have a strict rest.
Sizda yurak xastaligi bor.	You have heart disease.
Kasallik hali zo`raymagan.	You haven't exacerbation.
Shifoxonaga qatnab davolanasiz.	You will be treated in outpatient department.
<b>BUYRAK KASALLIGI</b>	<b>RENAL DISEASE</b>
Sizni ... bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
rangingiz oqarishi	paleness

yuzdagi shish	swelling of the face
qovoq shishi	swelling of the eyelids
oyoq shishi	swelling of the feet
Shish ... paydo bo`ladimi?	Does the swelling appear ...?
ertalab	in the morning
kechqurun	in the evening
yo uyqudan keyin	after sleeping
Sho`r ovqatdan keyin shish ko`payadimi?	Does the swelling increase from salty food?
Siydik rangi go`shtning seliga o`xshaydimi (qon aralashmi)?	Is your urine in the colour of meat slops (blood)?
Sizni ... og`riq bezovta qilayaptimi?	Are ... pain troubling you?
beldagi	the back
qorin ostidagi	the sub abdominal
Simillaydigan (qattiq) og`riqmi?	Is the pain Siell (acute)?
Ilgari ham shunday holat bo`lib turarmidi?	Did you have such a state before?
Arteriya qon bosimingiz ko`tarilarmidi?	Did you have an increased blood pressure?
Ko`rish qobiliyatingiz pasaya boshladimi?	Do you feel deterioration of view?
Bu kasallikdan oldin shamollagan edingizmi?	Did you catch a cold before this illness (disease)?
Sizda o`tkir (surunkali) buyrak kasalligi bor.	You have acute (chronicle) kidney disease.
Siz ... kerak.	You need to ....
sovuq qotmasligingiz	avoid cooling
sho`r va suyuqlikni kamroq iste`mol qilishingiz	limit salt foods and liquid
Sizing buyrak jomlaringiz shamollagan.	You have inflammation of the renal pelvis.
Bu kasallik xavfli ham, yuqumli ham emas, lekin davolatmasangiz yomon holatga tushishingiz mumkin.	This disease is not dangerous and infectious, but if you don't treat can be recurrence/relapses.
<b>OSHQOZON (MEDA), ICHAK, JIGAR KASALLIKLARI</b>	<b>DISORDER OF THE STOMACH, INTESTINE AND LIVER</b>
<b>GASTRIT</b>	<b>GASTRITIS</b>
Ovqatlanib bo`lgach, ko`krak osti qismi og`irlashib ketgandek bo`ladimi?	Do you feel heaviness at the epigastric area after meal?
To`yib ketgandek bo`lasizmi?	Do you feel overfill?
Sizni ... bezovta qiladimi?	Is ... troubling you?
ertalab ko`ngil aynishi	vomiting in the morning
kekirik	eructation
ishtaha yo`qligi	loss of appetite

Kekirik ... bilan boshlanadimi?	Did the eructation with ... ?
havo qaytarish	air
zarda qaynashi	acid
egan ovqatni kaytarib chiqarish	food
Kuniga necha marta ovqatlanasiz?	How many times a day do you have meals?
Necha kun ovqat emadingiz, suv ichmadingiz?	How many days didn't you have meals, drink?
Kasal bo'lish oldidan ... .. ?	Did you .....before falling ill?
spirтли ichimlik ichganmidingiz	use alcohol
eskirgan ovqat eganmidingiz	eat stale foods
Sizda o'tkir (surunkali) oshqozon-me'da kasalligi bor.	You have (chronic) disorder of the stomach.
<b>OSHQOZON VA O'N IKKI BARMOQ ICHAK YARASI</b>	<b>GASTRIC AND SIEODENAL ULCER</b>
Sizni ..... og'riq bezovta qilayaptimi?	Is the pain... troubling you?
ko'krak ostidagi	epigastric pain
o'ng qovurg'a ostidagi	on the right below the ribs
chap qovurg'a ostidagi	on the left below the ribs
Og'riq ... boshlanadimi?	Did the pain begin ...?
to'satdan	suddenly
asta-sekin	little by little
qattiq xuruj bilan	with acute attacks
Xuruj tez-tez bo'ladimi (yo ahyon-ahyondami)?	Are the attacks frequent (rare)?
Og'riq och qolganda xuruj qiladimi (tundami) ?	Does the pain attack when you are hungry (at night)?
Og'riq orqa kurakka o'tayaptimi?	Does the pain spread to the back?
Sizni ..... bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
so'lak oqishi	saliva bleeding
hiqqichoq	hiccup
ko'ngil aynishi	sickness
jig'ildon qaynashi	heart burn
qusish	vomiting
Qusgandan keyin engil bo'lasizmi?	Do you feel better after vomiting?
Ishtahangiz pasayganmi?	Is your appetite reSieced?
Og'riqdan qo'rqib ovqat emaysizmi?	Are you afraid of eating because of pain?
Ozdingizmi?	Did you lose your weight?
Necha kilogrammga?	How many kg.s?
Necha oyda?	For how many months?
Kasallik zo'rayishi ... bog'liqmi?	Does the acute condition (exacerbation) depend on ...?

yil fasllariga	seasons
ob-havoga	weather
holatingizga	your state
ovqatlanishingizga	your food
Kasallik ... zo' rayishini kuzatganmisiz?	Did you feel acute condition (exacerbation) of your illness (disease) ...?
qishda	in winter
yozda	in summer
bahorda	in spring
kuzda	in autumn
Tuzalishingiz cho'zilayaptimi?	Is your recovery prolonged?
Kasalingiz borasida vrachga murojaat qilganmisiz?	Did you consult a doctor about your disease?
Shifoxonada davolanganmisiz?	Did you take your treatment in the hospital?
Qachon?	When?
Sizning kasalingiz – oshqazon (o'n ikki barmoqli ichak) yarasi.	You have a gastric ulcer (Sieodenal ulcer)
Ayni paytda kasalingiz zo'raygan.	At present you have a sharpening of the disease.
Siz ovqatlanish tartibiga rioya qilishingiz kerak: kuniga 4 marta, lekin ma'lum bir vaqtda	You should keep to a diet: eat 4 times a day at certain hours.
Sizga spirtli ichimliklar ichish, sho'r, achchiq ovqatlar eyish, chekish mumkin emas.	It is impossible to use alcohol drinks, piquant foods, cigarettes.
Ko'p yillardan buyon oshqazon, ichak yarasi kasalligi bilan og'rib kelayapsiz muolaja kor qilmayapti.	You have been suffering from ulcerous disease for many years, treatment does not give any results.
Jarrohga murojaat qiling.	You should consult a surgeon.
<b>ENTEROKOLIT</b>	<b>ENTEROCOLITIS</b>
Kasallik to'satdan boshlandimi?	Did the disease begin suddenly?
Sizni ..... bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
qorin dam bo'lishi	bloating
qo'ldirashi	rumbling
og'iz qurishi	drying mouth
Bugun necha marta ichingiz keldi?	How many times have you had stool today?
Ichingiz suyuq keldimi?	Was the stool liquid (watery)?
Ichingiz ovqatdan keyin (ertalablari) ketadimi?	Do you have diarrhea after meals (in the mornings)?
Siyganda qiynalmaysizmi?	Do you urinate free?
Ko'p siyaysizmi?	Do you urinate much?
Haroratingiz balandmi?	Do you have a running temperature?

Parhez qilasizmi?	Do you keep to a diet?
Kasallanmasdan oldin ... iste`mol qilganmidingiz?	Did you eat ... before falling ill?
konservalar	tinned food
eski ovqatlar	stale food
yuvlmagan sabzavot (meva)	un washed vegetables (fruits)
Shu kabi kasalliklardan ilgari ham davolanganmisiz?	Did you take any treatment for this kind of disease?
Qabziyat bo`lib turadimi?	Do you suffer from constipation?
Qabziyat ich ketish bilan almashinib turadimi?	Does the constipation alternate with diarrhea?
Sizda o`tkir (surunkali) ichak kasalligi bor.	You have acute (chronicle) intestinal (gut) disease.
<b>JIGAR YALLIG`LANISHI</b>	<b>HEPATITIS</b>
Sizni ... bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
ovqatdan batamom ko`ngil qolishi	full aversion to the food
og`izning taxir bo`lishi	bitterness in the mouth
sassiq kekirish (kekirganda palag`da tuxum hidi kelishi)	belching (eructation) with rotten eggs
Sariq bo`lib qolganingizni qachon bilib qoldingiz?	When did you feel the jaundice?
Qorningiz og`ridimi?	Did you feel pain in the stomach?
Siydigingiz ... ..... ?	Is your urine ...?
sariqmi	of yellow colour
pivo rangidami	of beer colour
Ko`p siyasizmi (kammi)?	Do you urinate (much) little?
Axlatigiz ... ?	Are your feces ...?
odatdagidekmi	normal
ko`lrangmi	gray
oqishmi	white
Qichima bezovta qilmayaptimi?	Is not itching troubling you?
Sariq kuchaydimi?	Is the jaundice increased?
Kichima kuchayaptimi?	Is the itching increased?
Yaxshi uxlaysizmi?	Do you sleep well?
Bu kasallikdan 1-1,5 oy oldin ..... ?	Before falling ill with this disease 1-1,5 months before did you have...?
zaharlanganmisiz	a poisoning
yuqumli kasallik bilan og`riganmisiz	an infectious disease
Sizga ... ..... ?	Have you ever taken ...?
biror xil ukol qilishganmi	any injections
tomirdan suyuqlik yuborishganmi	infusion
qon quyishganmi	blood transfusion
Biron bir tanishingiz sariq bo`lganmi?	Have any of your friends had a jaundice?

Har doim ovqatlanish oldidan qo'lingizni yuvasizmi?	Do you always wash your hands before eating?
Sabzavot (ho'l meva)larni har doim yuvib eysizmi?	Do you always wash vegetables (fruits)?
Siz yuqumli sariq kasaliga chalingansiz, bu og'ir o'tadigan, boshqalarga yuqadigan kasallik.	You have infectious hepatitis, this is serious disease and contagious for others
Sizni shifoxonaga yotqizish kerak.	It is necessary to hospitalize you.
Siz ... rioya qilishingiz kerak.	You need to have ...
yotib davolanish tartibiga	a strict bed rest
sutli (ovqat), o'simlik va uglevodlar parheziga	milk-vegetable and carbohydrates diet.
Sizga glyukoza quyish, darmondorilar berilishi lozim	You need to take an infusion of glucose, vitamins and other medicines.
Jigaringiz surunkali kasallikka chalingan, lekin u yuqmaydi.	You have a chronic disease of liver, it is not an infectious.
<b>O'T PUFAGINING TOSHSIZ YALLIG'LANISHI. SAFRO YO'LI HARAKATI BUZILISHI</b>	<b>STONELESS CHOLECYSTITIS DYSKINESIA OF THE GALLBLADDER</b>
Sizni .....og'rishi bezovta qilayaptimi?	Is the pain .....troubling you?
o'ng qovurg'aniz osti	on the right below the ribs
kindik atrofi	around the navel
Og'riq yurak tomonga tarqalayaptimi?	Does the pain spread to the heart?
Og'zingiz taxirligi bezovta qilayaptimi?	Is the bitter taste in the mouth troubling you?
Kasallik ... keyin paydo bo'ldimi?	Did the disease appear after using..?
spirtli ichimlikdan	alcohol
yog'li ovqatdan	fatty food
achchiq ovqatdan	spicy food
yangi yopilgan non egandan	fresh bread
Kasalingiz- o't pufaginging o'tkir yallig'lanishi	You have an acute cholecystit.
Kasalingiz- o't pufaginging surunkali yallig'lanishi	You have a chronic cholecystit.
O't pufaginging kasallangan.	You have an inflammation of the gallbladder.
Sizni tekshirish va davolash kerak.	It is necessary to examine and treat you.
Yaxshisi shifoxonada davolanishingiz ma'qul.	You'd better to get treatment at the hospital.
<b>QANDLI DIABET</b>	<b>DIABETES MELLITUS</b>
Sizni .. bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
tashnalik	thirst
ishtahaning ochilib ketishi	increasing of the appetite

tez-tez va ko`p siyish	frequent and abundant urination
terining quruqlashib qolishi	skin dryness
teri qichishi	itching of the skin
chot orasining qichishi	itching of the crotch
jinsiy a`zolarining qichishi	itching of the sexual organs
ozish	losing of weight
mushaklarning kuchsizlanishi	muscle weakness
sezish qobiliyatining buzilishi	violation of the sensitivity
Chipqon chiqadimi?	Are there furuncles?
Oilangizda biron kishi qandli diabet bilan og`riganmi?	Did anybody suffer from diabetes in your family?
Shirinlikni ko`p iste`mol qilasizmi?	Do you eat much sweet?
Qand kasalligi bor – yo`qligini bilish uchun qon va siydingizni tekshirish kerak.	You need to do the analysis of blood and urine, in order to identify diabetes.
<b>QON KASALLIGI</b>	<b>BLOOD DISEASE</b>
Sizni ... bezovta qilayaptimi?	Is ... troubling you?
yurak urishi	palpitation
milklarning qonashi	bleeding of the gums
teridagi toshmalar	rash on the skin
limfa tugunlarning kattalashishi	enlarging of the lymphatic knots
.....havo etishmayotgandek tuyuladimi?	Do you feel lack of air .....?
Yurganda	while moving
Gaplashganda	while speaking
Sizning .... qon ketadimi?	Do you have ... bleeding?
burningizdan	nose
tomog`ingizdan	throat
orqa chiqaruv yo`lingizdan	anus
Axlatingiz qoramoySimonmi?	Is the colour of your feces black?
Bu holat to`satdan paydo bo`ldimi yoki asta-sekin ortib bordimi?	Did this state appear at once or grow gradually?
Kasallanishdan oldin ... chalinish hollari bo`lganmi?	Have you had ... before getting ill?
jarohatlanishga	trauma
ruhiy iztirobga	mental shock
yuqumli kasalliklarga	infectious disease
Sizda ... bo`lgandimi?	Do you have ...?
achchik, sho`r ovqatdan keyin achishgan og`riq sezish hollari	stabbing pain after spicy food?
Siz ... sezasizmi?	Do you feel...?
og`izdan yomon hid kelishini	unpleasant smell from your mouth

eb bo`lmaydigan narsalarni: bo`r, grafit, tish yuvadigan kukunga moyillik	inclination for inedible: the chalk, graphite, tooth-powder
Hayzingiz ... .. ?	Is your period ...?
ko`p ketadimi	heavy
bir necha kun davom etadimi	for several days
Hayzingiz necha kundan keyin keladi?	After how many days is your period?
Biror joyingizni ... qon tez to`xtaydimi?	Does the blood stop quickly....?
kesib olganingizda	after cutting
tish oldirganingizdan keyin	after tooth removal
Sizning ishingiz ... bilan aloqadormi?	Have you worked with ...?
margimush	arsenic
benzol	benzol
oltin preparatlari	gold preparations
Siz ... uzoq vaqt iste`mol qilganmisiz?	Have you taken ... for a long time?
sulfanilamid dorilarini	preparations of the sulphanilamid
piramidon	pyramidon
metil-tiouratsil	methyl-thiouracil
xinin (bezgak dori)ni	quinine
Sizni nur bilan davolashganmi?	Did you take radial therapy?
Siz nur olganmisiz?	Were you exposed to radiation?
Sizda bunday holat ilgari ham bo`lganmidi?	Have you had such state before?
Shifokorxonada davolandingizmi yoki shifoxonadami?	Did you have outpatient or inpatient treatment?
Sizning me`da shirangizni tekshirishdimi?	Was your gastric juice examined?
Kislota miqdori ... ?	Is acidity ...?
o`rtachami	normal
ko`tarilganmi	increased
pasayganmi	decreased
Sizdan tekshirish uchun qon olishdimi?	Was your blood analyzed?
Tekshiruv natijalarini ko`rsatingchi.	Show me, results of the blood analysis.
Sizdan tekshirishga qon olish kerak.	Your blood should be taken for analysis.
Tekshirish uchun ko`krak suyagingizdan ilik olish kerak.	You must have chest puncture and bone brain for analysis
Sizda qon ketishdan keyingi kamqonlikning og`ir (engil) formasi mavjud.	You have anaemia in heavy (slight) form after bleeding.
Siz oqqon kasaliga uchragansiz.	You have leukoemia.
Bu nasliy kasallik.	This is a hereditary disease.

Qoningiz yaxshi ivimas ekan.	You have a bad coagulation.
Sizga darhol qon quyish kerak.	You need blood transfusion.
Xafa bo`lmang, kasalingizni davolasa bo`ladi.	Don't worry. Your disease is curable.
<b>ISSIQ O`LKALARGA XOS AYRIM KASALLIKLAR</b>	<b>SOME TROPICAL DISEASES</b>
<b>BEZGAK</b>	<b>MALARIA</b>
Kasalingiz o`qtin-o`qtin tutib turadimi?	Is your disease attack typed?
Xuruj ... davom etadimi?	Does the attack last ...?
yigirma minut	20 minutes
o`ttiz minut	30 minutes
to`rt soat	4 hours
Etingiz uvishgandan so`ng haroringiz oshadimi?	Does the temperature increase after shivering?
Terlaganingizdan keyin haroringiz tushadimi?	Does the temperature decrease after the sweat?
Xuruj 2 (3) kundan keyin qaytalaydimi?	Does the attack repeat in 2 (3) days?
Qayta xuruj vaqtida ... sezasizmi?	Do you feel...after repeated attacks?
darmonsizlikni	weakness
uyqu bosishini	Sleepiness/drowsiness
tomir tortishishini	cramps
Siz bezgakka uchragansiz.	You have malaria.
Qovoqlaringiz har doim shunday shishgan bo`ladimi?	Do you always have such swelled eyelids?
Qovoqlaringiz shishganiga ancha bo`ldimi?	How long ago did your eyelids swell?
Mana shu ... paydo bo`lganiga necha kun bo`ldi?	How many days have passed since appearing these ...?
qizil tugunchalar	red knots
to`q qizil qattiq shish do`mboqchalar	dark-red condensations
Qovoqlaringiz shishganiga necha .....bo`ldi?	How many .....ago did the eyelid swelling appear?
soat	hours
kun	days
hafta	weeks
oy	months
Qovoqlaringiz o`sha zahoti qizardimi?	Were the knots red when they appeared?
Shish qotib qolgan joy atrofida birdaniga paydo bo`ldimi?	Did swelling around the seal appear at once?
Shish qoramtir chandiq tuguncha yo`qolgandan so`ng paydo bo`ldimi?	Did swelling appear after dark scar disappearance?

Shish terida o'zgarish yuz berishi bilan bir vaqtda paydo bo'ldimi?	Did swelling appear simultaneously with skin changes?
... qo'l tekkizsam og'riyaptimi?	Do you feel pain when I touch your...?
Teringizga	skin
Qorningizga	stomach
Limfa tugunchalariga	lymphatic knots
Qorningiz doimo shunday ko'rinishdami?	Is your stomach always in such form?
Bu erda og'riq bormi?	Does it hurt here?
Qorningizning mana bu eri kattalashganiga .....?	Did this area of your stomach enlarge.....?
ancha bo'ldimi	long ago
yaqindami	not long ago
Yurishingiz o'zgardimi?	Did your step change?
Siz .....yuryapsizmi?	Are you walking .....?
qiynalib	with difficulty
chayqalib	waddling
Kunduzgi uyqungiz kelib, tunda bezovta bo'lasizmi?	Do you have drowsiness at the day time and concern at night?
Siz o'zingizda .. .....sezasizmi?	Do you feel...?
til mushaklarining titraganini	twitching of the tongue muscles
yuz mushaklarining uchishini	twitching of the face muscles
qo'l barmoqlarining qaltirashini	trembling of the fingers
Kasalingiz tripanosamoz.	You have trypanosomosis.
Kasallikni o'tkazib yuborgansiz.	Your disease is complicated.
Sizni atrofda gilardan ajratish kerak.	It is necessary to isolate you from others.
<b>AMEBIAZ – ICHAK KASALLIGI</b>	<b>INTESTINAL AMEBIASIS</b>
